

YUQORI SINF ONA TILI DARSLARIDA TEST TOPSHIRIQLARINING AMALIY AHAMIYATI

Xusenova Nargiza

mutaxassisligi magistranti

ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti

Annotatsiya. Ushbu maqola ona tili ta’limida test topshiriqlarining amaliy ahamiyati xususida bo‘lib, unda asosan 10-11-sinf darsliklarida keltirilgan test topshiriqlari tahlil qilinadi. Test topshiriqlarining nazariy va metodik asoslari qanday bo‘lishi lozim, ona tili darslarining samaradorligini oshirishda qaysi turdag'i testlardan foydalanish lozimligi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Test topshiriqlari, ochiq testlar, yopiq testlar, jadvalli testlar, rasmi testlar,

Har bir mamalakatning ta’lim tizimi uning buyuk kelajagini ta’minlovchi eng asosiy omillardan biridir. Aniq va tabiiy fanlar texnika taraqqiyotiga yo‘l ochsa, til va adabiyot ta’limi insonning o‘zligini anglashiga, milliyatini tanishiga yo‘l ochadi. Bizning jamiyatimiz hayotni aniq raqamlar asosida tasvirlaydigan zamonaviy shaxs emas, balki hayotni o‘z e’tiqodiy haqiqatlariga va milliy an’analariga tayangan holda ko‘ra oladigan komil insonni tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yan. Shu maqsadda mamlaktatimizda maktab ta’limiga, xusan, adabiy va til ta’limini rivojlantirishga katta e’tibor qaratlimoqda. Hozirgi zamon o‘qituvchisi har tomonlama keng bilimli bo‘lishi ya’ni adabiy til normalarini egallashi, sinflarda olib boriladigan ishlar mazmuni va sistemasini dasturini yaxshi bilishi, o‘z fanini o‘rgatishning nazariy asoslarini va ta’lim prinsiplarini o‘zlashtirishi o‘quv ishlarining asosiy usullarini olishi va uni o‘z ish tajribasida tatbiq qila olishi, metodikaning fan sifatida rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini, keyingi yillarda o‘z sohasida olib borilgan tadqiqotlarni va hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolarni tushunib borishi lozim. Ayniqsa, ona tili fani

o‘qituvchisi tarbiya ishiga, o‘quvchilarga ona tilining boyligini ko‘rsata olishga mohir bo‘lishi, bolalarning adabiy tilga so‘zlashga adabiy nutqni egallahashga, kitobni sevishga va ifodali o‘qishga o‘rgatish lozim. O‘quvchi yoshlarni, avvalo, o‘z ona tiliga hurmat va muhabbat bilan tarbiyalash bu soha pedagoglarining asosiy vazifasidir. Yuqori sinf o‘quvchilarining tilshunoslik sohasidagi nazariy bilimlarini oshirish maqsadida prezidentimiz barcha oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlari uchun ona tili fanidan majburiy test sinovlarini ham qo‘shdilar⁷³. Demak, O‘zbekistonning har bir fuqarosi u qaysi kasb egasi bo‘lishidan qati nazar, har bir yoshi u qaysi universitet talabasi bo‘lishidan qati nazar eng avvalo o‘z ona tilini yaxshi bilishi qonun hujjati bilan mustahkamlangandir.

Ona tili ta’limini rivojlantirishda test topshiriqlarining ahamiyati kattadir. Testlar barcha fanlar doirasida o‘quvchi bilimini sinashning asosiy o‘lchovidir. Aslida eng avvaldan, test (ingl. - sinov) birinchi marta 1864-yilda Buyuk Britaniyada J.Fisher tomonidan talabalarning bilim darajasini tekshirish uchun qo‘llanilgan. Test sinovlari dastlab psixologiya fani doirasida rivojlandi. XX asr boshida esa test sinovlarini ishlab chiqishda psixologik va pedagogik yo‘nalishlar bir-biridan mustaqil ajrala boshladi. Pedagogik test sinovlari birinchi marta amerikalik psixolog E.Torndayk tomonidan yaratilgan⁷⁴. Psixologik testlardan inson ongi va psixik holatlarini aniqlashda hozirgi keng miqiyosda foydalilaniladi. Pedagogik testlar esa har bir fan miqiyosida o‘quvchining yosh va aqliy darajasiga qarab olinishi mumkin.

Hozirda test sinovlarining asosiy vazifasi nimalardan iborat. Xususan, bizning o‘rganish obyektimiz bo‘lgan ona tili ta’limida test topshiriqlarining ta’lim samaradorligi uchun asosiy funksiyasi nimadan iborat va uning qaysi turlarini ona tili darslarida qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Deyarli ko‘p yillar davomida bizning asosiy sinov turimiz yopiq testlar bo‘lib keldi. Ammo yangilanayotgan darsliklarda, ochiq testlarning, o‘quvchining yosh toifasiga qarab rasmi, jadvalli hamda matnli

⁷³ “Oliy ta’lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi PQ-4319 sonli qarori

⁷⁴ www.ziyonet.uz

testlar ham darsliklardan o‘rin olayotganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, quyidagi jadvalda turli tillardan kirib kelgan so‘zlarni jadvalga joylashtirish lozim. Bunda o‘quvchilar qaysi tamoyillarga asoslangan holda topshiriqni bajarishadi. Bu mashq 11-sinf o‘uvchilari uchun ayni mos tanlangan chunki, o‘quvchilar jamiyat bilan uzluksiz muloqotda va munosabatda bo‘lib yoki ommaviy axborot vositalari orqali turli xil tillarni tushunish va farqlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Til xususiyatlarini nazariy jihatdan asoslab berolmasa ham so‘zlarning qaysi tilga oid ekanligini farqlay olishadi, ammo bu jadvalni test deb bo‘lmaydi albatta, bu bolaning salohiyatini aniqlash uchun qo‘yilgan jadval. Bunday jadvallar orqali mantiqiy tafakkur ko‘nikmalarini yanada rivojlantiramiz.⁷⁵

Arabcha so‘zlar	Fors-tojikcha so‘zlar	Xitoycha so‘zlar	Rus tili orqali kirib kelgan so‘zlar
Muallim...	Farzand...	Lag‘mon...	Paroxod...

Yuqori sinf darsliklarida, ayniqsa 10-sinf va 11-sinf ona tili darsliklarida ko‘proq test topshiriqlarining berib borilishi maqsadga muvofiqdir chunki abituriyent uchun eng asosiy manba bu mакtab darsliklaridir. Har bir mavzuning oxirida o‘quvchini ilmiy va mantiqiy fikrlashga undovchi testlarning berib borilishi bilan joriy bilimlar takrorlanadi va mustahkamlanadi. Ammo darslikda ba’zi mashqlar ham borki shartlarida biroz tushunarsizliklarga duch kelamiz, masalan, quyidagi test topshirig‘iga e’tibor qarataylik, topshiriqning sharti quyidagicha “Berilgan gapdan talaffuzda bir unli tushib qoladigan, bu o‘zgarish yozuvda aks etadigan so‘zni aniqlang. Odamning himmati va muruvvati, uning muomalasi, qo‘lidan keladigan ishlari, yaratuvchiligi barobarida qadrlanadi⁷⁶. (Yusuf Xos Hojib)

A.Odam B.Muomala C.Qadrlanadi D. Muruvvat

⁷⁵ Mengliyev B., Toshmirzayeva Sh., Atoyeva S., Majidova S. 11-sinf ona tili darsligi. 2-qism. Toshkent, 2020.

⁷⁶ Mengliyev B., Toshmirzayeva Sh., Atoyeva S., Majidova S. 11-sinf ona tili darsligi. 2-qism. Toshkent, 2020

Bu testning javobi sifatida B.Muomala javobi berilmoqda. Bu so‘zni fonetik tahlilga tortamiz. Muomala so‘zi talaffuz qilinganda birinchi bo‘g‘in tarkibidagi yuqori tor unlinining tushib qolib, yoki o‘zidan keyingi keng unliga uyg‘un tarzida talaffuz qilinib sinerezis hodisasi yuzaga kelayotganini ko‘rishimiz mumkin. Sinerezis hodisasi esa og‘zaki nutqda ro‘y beruvchi fonetik o‘zgarishdir. Og‘zaki nutqda shunday aytilishidan qat’iy nazar yozma nutqda o‘z shakliga ko‘ra yoziladi. Demak mashq shartidagi “bu o‘zgarish yozuvda aks etadigan so‘z” degan jumlanı olib tashlash joiz. Ammo bir qadar test topshiriqlari borki o‘z ilmiy asosiga egadir, testning topshirig‘i quyidagicha: “Matndan asosga qo‘srimcha qo‘silganda tovush o‘zgarishi yozuvda aks etgan so‘zlarni belgilang”.

- A. Yuragiga, ko‘ngli, ahli, xotirjamlik, to‘lmaganini
- B. Yuragiga, muloyimroq, shunday, bag‘ishlaydi, go‘zalligini
- C. Yuragiga, shunday, ko‘ngli, borligi, go‘zalligini
- D. Yuragiga, ishlayotgan, tinchlikdir, go‘zalligini, borligi

Ushbu test qiyinchilik darajasi birinchi darajali test hisoblanib, o‘quvchilar uchun takroriy dars yakuniga berilgan. Bu testning qiyinchilik darajasini biroz oshirish orqali o‘quvchini bir necha til bo‘limlari yuzasidan bilimlarini tekshirish mumkin. Masalan, fonetik o‘zgarishga sabab bo‘luvchi ismlarning munosabat shakllarini yoki otning lug‘aviy shakllari qo‘silishi asosida fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlarni aniqlang singari topshiriqlar berilsa o‘quvchining ham morfologiya, ham fonetika, ham morfemika yuzasidan bilimlari tekshirilishi mumkin. Qoida mohiyatini ochish qoida so‘zning qaysi qismini, qaysi so‘z turkumi yoki grammatick shaklini yozishni boshqarishni, bunda qaysi belgilar yetakchi ekanini tushuntirish demakdir. O‘quvchilarni qoida bilan tanishtirish uchun material tanlashda o‘qituvchi bu yetakchi belgilarni albatta hisobga oladi. Topshiriq uchun tanlanayotgan matn ham katta ahamiyatga egadir, ilmiy uslubdagi matnlar tahlili orqali yangi bilimlar, didaktik ahamiyatga ega matnlar orqali o‘quvchini ichki sezimlariga ta’sir qiluvchi tarbiyaviy rujni singdirish mumkin. Materialning to‘g‘ri tanlanganligi uning g‘oyaviy yo‘nalishida va badiiy ifodaliligi o‘quvchilarning fikrlash faoliyatiga, his-tuyg‘ulariga

ta’sir etadi⁷⁷. Atrof-muhit haqidagi bilimlarni kengaytiradi, tilga va uni yaratgan xalqqa hurmat ruhida tarbiyalaydi, ularning shaxsiy sifatlarini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida o‘quvchilarga ta’lim, tarbiya berishdan asosiy maqsadlardan biri ularda mantiqiy tafakkur va keng dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu vazifani hal qilishda maqsadga muvofiq ishlashning yetakchi sharti o‘quvchiga nazariy bilimlar berish bilan bir qatorda, uning shaxsiyatini ham tarbiyalashdir. Jarayonda fanning asosiy obyekti darslik hisoblansa, darslikning asosiy obyekti esa undagi mashq va topshiriqlardir. Bu omillar esa tilni o‘rgatish bilan bog‘liq holda o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish usulini belgilaydi. To‘g‘ri tanglangan mashq va topshiriqlar samarali dars jarayoni uchun asos bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Oliy ta’lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi PQ-4319 sonli qarori
2. Mengliyev B., Toshmirzayeva Sh., Atoyeva S., Majidova S. 11-sinf ona tili darsligi. 2-qism. Toshkent, 2020.
3. To‘xliyev B. va boshqalar. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti , 2006

⁷⁷ To‘xliyev B. va boshqalar. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti , 2006